ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra*
*(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 32 476 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 27 230 ta). 2019- yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 11,0 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 11,6 foiz) tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2023- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

83
3,4 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

240
3,6 %

Sanoat

68
3,0 %

Qurilish

449
4,6 %

Savdo

51
4,9 %

Tashish va saqlash

38
2,9 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

27
6,1 %


Axborot va aloqa

26
2,7 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

132
1,7 %

Boshqa turlar

2023- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 1 114 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 962 ta, oilaviy korxonalar 78 ta, xususiy korxonalar 21 tani tashkil etgan.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 259 | 3,1 % | Xo‘jaobod t. | 50 | 3,3 % |
| Andijon t. | 139 | 5,7 % | Marhamat t. | 50 | 3,2 % |
| Asaka t. | 95 | 3,3 % | Paxtaobod t. | 45 | 3,2 % |
| Oltinko‘l t. | 76 | 4,2 % | Bo‘ston t. | 41 | 4,7 % |
| Baliqchi t. | 67 | 3,2 % | Buloqboshi t. | 38 | 3,7 % |
| Izboskan t. | 61 | 3,4 % | Ulug‘nor t. | 37 | 4,8 % |
| Shahrixon t. | 60 | 2,6 % | Jalaquduq t. | 35 | 2,4 % |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 53 | 3,5 % | Xonobod sh. | 8 | 1,3 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 428



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

6 605



Sanoat

2 298



Qurilish

9 705



Savdo

1 048



Tashish va saqlash

1 325



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

446




Axborot va aloqa

981



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

7 640



Boshqa turlar

2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 111,0 foizni tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 29,9 foiz, sanoat – 20,3 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 7,5 foiz, qurilish – 7,1 foiz, hududiy kesimda eng ko‘p Andijon shahrida – 25,9 foiz, Asaka – 8,9 foiz, Andijon – 7,5 foiz, Shahrixon – 7,0 foiz va Baliqchi – 6,4 foiz tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 8 414 | Qo‘rg‘ontepa t. | 1 535 |
| Asaka t. | 2 899 | Xo‘jaobod t. | 1 521 |
| Andijon t. | 2 427 | Jalaquduq t. | 1 449 |
| Shahrixon t. | 2 283 | Paxtaobod t. | 1 423 |
| Baliqchi t. | 2 065 | Buloqboshi t. | 1 040 |
| Oltinko‘l t. | 1 819 | Bo‘ston t. | 878 |
| Izboskan t. | 1 780 | Ulug‘nor t.. | 767 |
| Marhamat t. | 1 543 | Xonobod sh. | 633 |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

83
3,5 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

240
3,6 %

Sanoat

68
3,0 %

Qurilish

449
4,6 %

Savdo

50
4,8 %

Tashish va saqlash

38
2,9 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

27
6,2 %


Axborot va aloqa

26
2,9 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

85
3,1 %

Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2023- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 066 ta bo‘lib, ularning barchasi mikrofirmalar va kichik korxonalar hissasiga to‘ri keladi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 239 | 3,3 % | Xo‘jaobod t. | 50 | 3,9 % |
| Andijon t. | 133 | 6,2 % | Marhamat t. | 50 | 3,8 % |
| Asaka t. | 93 | 3,8 % | Paxtaobod t. | 42 | 3,6 % |
| Oltinko‘l t. | 76 | 5,0 % | Bo‘ston t. | 41 | 5,9 % |
| Izboskan t. | 60 | 4,0 % | Buloqboshi t. | 37 | 4,5 % |
| Shahrixon t. | 59 | 3,1 % | Ulug‘nor t. | 37 | 6,0 % |
| Baliqchi t. | 56 | 3,2 % | Jalaquduq t. | 34 | 2,9 % |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 52 | 4,3 % | Xonobod sh. | 7 | 1,3 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- aprel holatiga 27 379 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan (2 862 taga) o‘sish sur’ati 111,7 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 35,4 foiz, sanoat – 24,0 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 8,8 foiz, qurilish – 8,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 4,8 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 3,3 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, boshqa turlari – 9,9 foiz.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 7 297 | Xo‘jaobod t. | 1 297 |
| Asaka t. | 2 480 | Qo‘rg‘ontepa t. | 1 206 |
| Andijon t. | 2 129 | Jalaquduq t. | 1 166 |
| Shahrixon t. | 1 883 | Paxtaobod t. | 1 158 |
| Baliqchi t. | 1 756 | Buloqboshi t. | 829 |
| Oltinko‘l t. | 1 521 | Bo‘ston t. | 698 |
| Izboskan t. | 1 505 | Ulug‘nor t. | 612 |
| Marhamat t. | 1 308 | Xonobod sh. | 534 |

# 6 Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foiz |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 83 | 3,5 % |
| Sanoat | 240 | 3,7 % |
| Qurilish | 68 | 3,0 % |
| Savdo | 449 | 4,6 % |
| Tashish va saqlash | 50 | 4,8 % |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 38 | 2,9 % |
| Axborot va aloqa | 27 | 6,2 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 26 | 2,9 % |
| Boshqa turlar | 85 | 3,2 % |

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-mart oylarida tashish va saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 42 tadan 50 taga (o‘sish 8 taga) ko‘paydi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 239 | 3,3 % | Xo‘jaobod t. | 50 | 3,9 % |
| Andijon t. | 133 | 6,3 % | Marhamat t. | 50 | 3,8 % |
| Asaka t. | 93 | 3,8 % | Paxtaobod t. | 42 | 3,6 % |
| Oltinko‘l t. | 76 | 5,0 % | Bo‘ston t. | 41 | 5,9 % |
| Izboskan t. | 60 | 4,0 % | Buloqboshi t. | 37 | 4,5 % |
| Shahrixon t. | 59 | 3,1 % | Ulug‘nor t. | 37 | 6,1 % |
| Baliqchi t. | 56 | 3,2 % | Jalaquduq t. | 34 | 2,9 % |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 52 | 4,3 % | Xonobod sh. | 7 | 1,3 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 386

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

6 524

Sanoat

2 284

Qurilish

9 683

Savdo

1 034

Tashish va saqlash

1 321

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

437

Axborot va aloqa

896

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

2 665

Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlarining ulushi Andijon shahrida (26,6 foiz), Asaka (9,1 foiz), Andijon (7,8 foiz), Shahrixon (6,9 foiz) va Baliqchi (6,4 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 7 231 | Xo‘jaobod t. | 1 290 |
| Asaka t. | 2 470 | Qo‘rg‘ontepa t. | 1 200 |
| Andijon t. | 2 115 | Jalaquduq t. | 1 160 |
| Shahrixon t. | 1 879 | Paxtaobod t. | 1 154 |
| Baliqchi t. | 1 752 | Buloqboshi t. | 828 |
| Oltinko‘l t. | 1 514 | Bo‘ston t. | 695 |
| Izboskan t. | 1 502 | Ulug‘nor t. | 608 |
| Marhamat t. | 1 302 | Xonobod sh. | 530 |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Asaka t. | 295 |
| Baliqchi t. | 225 |
| Izboskan t. | 204 |
| Andijon t. | 200 |
| Paxtaobod t. | 164 |
| Andijon sh. | 160 |
| Shahrixon t. | 158 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 149 |
| Marhamat t. | 144 |
| Ulug‘nor t. | 143 |
| Oltinko‘l t. | 127 |
| Jalaquduq t. | 126 |
| Xo‘jaobod t. | 119 |
| Bo‘ston t. | 110 |
| Buloqboshi t. | 67 |
| Xonobod sh. | 37 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 1 680 |
| Andijon t. | 676 |
| Asaka t. | 614 |
| Shahrixon t. | 497 |
| Xo‘jaobod t. | 441 |
| Baliqchi t. | 432 |
| Oltinko‘l t. | 351 |
| Izboskan t. | 290 |
| Jalaquduq t. | 280 |
| Marhamat t. | 278 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 246 |
| Buloqboshi t. | 236 |
| Paxtaobod t. | 223 |
| Bo‘ston t. | 135 |
| Xonobod sh. | 118 |
| Ulug‘nor t. | 108 |




Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 20,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,0 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 69,1 foiz), 1,7 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (70,3 foiz), 1,7 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (81,0 foiz) hamda 0,6 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (108,8 foiz) tashki etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 822 |
| Asaka t. | 200 |
| Andijon t. | 164 |
| Shahrixon t. | 153 |
| Izboskan t. | 135 |
| Oltinko'l t. | 127 |
| Marhamat t. | 92 |
| Bo'ston t. | 88 |
| Baliqchi t. | 85 |
| Qo'rg'ontepa t. | 81 |
| Xo'jaobod t. | 80 |
| Paxtaobod t. | 64 |
| Buloqboshi t. | 63 |
| Jalaquduq t. | 54 |
| Xonobod sh. | 50 |
| Ulug'nor t. | 40 |




Viloyatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,6 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 64,9 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,5 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,3 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,9 foiz ulushni va 72,2 foizni tashkil etdi.

**287** Fuqarolik obyektlarini qurish

**711** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**1 300** Bino va inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 2 280 |
| Asaka t. | 836 |
| Baliqchi t. | 702 |
| Shahrixon t. | 687 |
| Andijon t. | 675 |
| Oltinko‘l t. | 652 |
| Izboskan t. | 608 |
| Jalaquduq t. | 501 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 495 |
| Paxtaobod t. | 483 |
| Marhamat t. | 443 |
| Xo‘jaobod t. | 438 |
| Buloqboshi t. | 266 |
| Bo‘ston t. | 248 |
| Ulug‘nor t. | 210 |
| Xonobod sh. | 181 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 9 683 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 64,4 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 79,6 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 28,4 foiz ulushni tashkil etib, 81,5 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 7,2 foiz ulushni tashkil etib, 76,4 foizni tashkil etdi.

| | | |
|---|---|---|
| **699** | **2 760** | **6 246** |
| Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash | Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo | Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo |

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 457 |
| Asaka t. | 111 |
| Andijon t. | 100 |
| Shahrixon t. | 74 |
| Oltinko‘l t. | 65 |
| Ulug‘nor t. | 58 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 58 |
| Xonobod sh. | 56 |
| Izboskan t. | 51 |
| Baliqchi t. | 49 |
| Jalaquduq t. | 49 |
| Paxtaobod t. | 46 |
| Buloqboshi t. | 45 |
| Xo‘jaobod t. | 44 |
| Marhamat t. | 40 |
| Bo‘ston t. | 22 |




2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar 2019- yilning mos davriga nisbatan 96,4 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,5 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 93,5 foiz ulushini tashkil etdi.

**86** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**1 239** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 170 |
| Marhamat t. | 33 |
| Andijon t. | 30 |
| Buloqboshi t. | 30 |
| Xo‘jaobod t. | 27 |
| Baliqchi t. | 26 |
| Asaka t. | 22 |
| Shahrixon t. | 20 |
| Oltinko‘l t. | 16 |
| Jalaquduq t. | 15 |
| Paxtaobod t. | 13 |
| Izboskan t. | 12 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 12 |
| Ulug‘nor t. | 9 |
| Bo‘ston t. | 6 |
| Xonobod sh. | 5 |




2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,9 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 82,7 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 48,0 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 74,8 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 38,1 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 76,6 foizni tashkil etdi.



*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 327 |
| Shahrixon t. | 85 |
| Asaka t. | 82 |
| Baliqchi t. | 56 |
| Andijon t. | 55 |
| Izboskan t. | 55 |
| Oltinko‘l t. | 52 |
| Marhamat t. | 48 |
| Paxtaobod t. | 44 |
| Xo‘jaobod t. | 40 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 38 |
| Buloqboshi t. | 37 |
| Jalaquduq t. | 35 |
| Xonobod sh. | 13 |
| Bo‘ston t. | 7 |
| Ulug‘nor t. | 7 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 899 ta yoki 91,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

97,6 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 95,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 1,4 foizni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 70,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,0 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 111,1 foizni tashkil etdi;



# 15 Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 391 |
| Asaka t. | 96 |
| Andijon t. | 71 |
| Shahrixon t. | 65 |
| Marhamat t. | 52 |
| Oltinko‘l t. | 47 |
| Baliqchi t. | 45 |
| Xo‘jaobod t. | 44 |
| Paxtaobod t. | 44 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 37 |
| Izboskan t. | 36 |
| Bo‘ston t. | 34 |
| Jalaquduq t. | 33 |
| Buloqboshi t. | 28 |
| Ulug‘nor t. | 16 |
| Xonobod sh. | 9 |




2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,2 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar 77,5 foizni tashkil etdi;
- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishi 70,7 foizni;
- pochta va kuryerlik yo‘nalishi 58,3 foizni;
- havo transporti yo‘nalishida 100,0 foizni tashkil etdi.

| Havo transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|
| 1 | 14 | 212 | 821 |

## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tadbirkorlik subyektlari soni** | **Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

75
3,9 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

194
3,6 %

Sanoat

68
3,2 %

Qurilish

423
5,2 %

Savdo

49
5,0 %

Tashish va saqlash

30
3,0 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

24
6,4 %


Axborot va aloqa

23
3,1 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

76
3,5 %

Boshqa turlar

**Mas’uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 226 | 3,6 % | Marhamat t. | 47 | 4,1 % |
| Andijon t. | 110 | 6,4 % | Paxtaobod t. | 42 | 4,0 % |
| Asaka t. | 76 | 4,3 % | Qo‘rg‘ontepa t. | 40 | 4,4 % |
| Oltinko‘l t. | 70 | 5,5 % | Ulug‘nor t. | 36 | 6,9 % |
| Izboskan t. | 57 | 4,3 % | Buloqboshi t. | 35 | 5,0 % |
| Shahrixon t. | 54 | 3,5 % | Jalaquduq t. | 34 | 3,4 % |
| Baliqchi t. | 53 | 3,6 % | Bo‘ston t. | 27 | 5,9 % |
| Xo‘jaobod t. | 48 | 4,2 % | Xonobod sh. | 7 | 1,6 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 1 937 |
| Sanoat | 5 321 |
| Qurilish | 2 105 |
| Savdo | 8 130 |
| Tashish va saqlash | 974 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 987 |
| Axborot va aloqa | 374 |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 738 |
| Boshqa turlar | 2 183 |

2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 27 379 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 22 749 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri kelib, tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha korxonalar orasida birinchi o‘rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko‘p tarqalgan shakli hisoblanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 6 288 | Xo‘jaobod t. | 1 143 |
| Asaka t. | 1 767 | Paxtaobod t. | 1 045 |
| Andijon t. | 1 732 | Jalaquduq t. | 989 |
| Shahrixon t. | 1 549 | Qo‘rg‘ontepa t. | 916 |
| Baliqchi t. | 1 465 | Buloqboshi t. | 699 |
| Izboskan t. | 1 320 | Ulug‘nor t. | 524 |
| Oltinko‘l t. | 1 273 | Bo‘ston t. | 454 |
| Marhamat t. | 1 143 | Xonobod sh. | 442 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni | Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

189

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

504

Sanoat

148

Qurilish

1 092

Savdo

39

Tashish va saqlash

175

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

47


Axborot va aloqa

142

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

315

Boshqa turlar

2023- yil 1- aprel holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni o‘zaro taqqoslanganda, ikkinchi o‘rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko‘pi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Andijon shahrida – 619 ta, Asaka – 433 ta, Baliqchi – 226 ta va Shahrixon tumanlarida – 155 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan: savdo sohasida – 1 092 ta, sanoat – 504 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 189 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 175 ta.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 619 | Xo‘jaobod t. | 133 |
| Asaka t. | 433 | Marhamat t. | 133 |
| Baliqchi t. | 226 | Izboskan t. | 94 |
| Shahrixon t. | 155 | Buloqboshi t. | 74 |
| Andijon t. | 144 | Bo‘ston t. | 65 |
| Oltinko‘l t. | 139 | Paxtaobod t. | 60 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 139 | Ulug‘nor t. | 54 |
| Jalaquduq t. | 136 | Xonobod sh. | 47 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni | Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 997 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: sanoatda – 275 tadan 679 taga (o‘sish 404 taga), savdoda – 61 tadan 429 taga (o‘sish 368 ta), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda – 72 tadan 159 taga (o‘sish 87 taga) sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 281 | Baliqchi t. | 46 |
| Asaka t. | 250 | Buloqboshi t. | 40 |
| Andijon t. | 234 | Xonobod sh. | 37 |
| Bo‘ston t. | 166 | Ulug‘nor t. | 25 |
| Shahrixon t. | 162 | Jalaquduq t. | 24 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 128 | Paxtaobod t. | 22 |
| Oltinko‘l t. | 90 | Marhamat t. | 17 |
| Izboskan t. | 75 | Xo‘jaobod t. | 10 |

## Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

25

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

169

Sanoat

21

Qurilish

56

Savdo

4

Tashish va saqlash

10

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

2


Axborot va aloqa

3

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

35

Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 1,3 barobarga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 75 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu, viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 19,4 foiz), Qirg‘iz Respublikasi (ulushi 14,8 foiz), Turkiya (ulushi 14,8 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 11,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 126 | Xo‘jaobod t. | 12 |
| Andijon t. | 31 | Xonobod sh. | 12 |
| Oltinko‘l t. | 20 | Qo‘rg‘ontepa t. | 9 |
| Shahrixon t. | 19 | Izboskan t. | 8 |
| Asaka t. | 18 | Bo‘ston t. | 7 |
| Jalaquduq t. | 16 | Baliqchi t. | 7 |
| Buloqboshi | 16 | Paxtaobod t. | 7 |
| Marhamat t. | 12 | Ulug‘nor t. | 5 |

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*




O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari – bu, ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 185 tasi qo‘shma korxonalar, 140 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

*2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo'shma korxonalar |
|---|---|---|
| 62 | Andijon sh. | 64 |
| 10 | Andijon t. | 21 |
| 10 | Jalaquduq t. | 6 |
| 9 | Oltinko'l t. | 11 |
| 9 | Buloqboshi t. | 7 |
| 7 | Asaka t. | 11 |
| 6 | Shahrixon t. | 13 |
| 6 | Izboskan t. | 2 |
| 4 | Xo'jaobod t. | 8 |
| 4 | Qo'rg'ontepa t. | 5 |
| 3 | Xonobod sh. | 9 |
| 3 | Marhamat t. | 9 |
| 2 | Baliqchi t. | 5 |
| 2 | Paxtaobod t. | 5 |
| 2 | Ulug'nor t. | 3 |
| 1 | Bo'ston t. | 6 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

| | xorijiy korxonalar | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 9 | 16 |
| Sanoat | 56 | 113 |
| Qurilish | 10 | 11 |
| Savdo | 34 | 22 |
| Tashish va saqlash | - | 4 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 10 | - |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 2 | - |
| Axborot va aloqa | 2 | 1 |
| Boshqa turlar | 17 | 18 |

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes hamda sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

**Andijon viloyati statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo‘limi**
**Tel.: 74 228-29-74**